

KONSESSİYALAR SHARTNOMASI TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

Xasanova Xusnoraxon Faxriddinovna

Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta'lim tashkiloti,

Iqtisodiyot fakulteti, «Moliya» kafedrası
v.b., dosent, i.f.f.d., (PhD)

(97) 4774843, xusnora4843@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14223510>

Abstract Konsessiya (lot. concessio — ruxsat, yon berish) — 1) xo'jalik yuritish va chet el kapitalini jalb qilish shakli; milliy iqtisodiyotni rivojlantirish yoki tiklash, tabiiy boyliklarni o'zlashtirish maqsadida davlat yoki mahalliy hokimiyat idoralariga qarashli yer uchastkalari, qazilma boyliklar, korxonalar va boshqa xo'jalik ob'yektlarini muayyan muddatga va shartlar bilan foydalanish uchun chet el kapitali (davlat, firma, xususiy shaxs) ga berish haqidagi shartnoma yoki kelishuv. Xalqaro huquq bo'yicha davlat shartnoma muddati tugaganidan keyin K. amal qilishini to'xtatishi mumkin. Hozirgi sharoitlarda konsessioner ishlab chiqargan mahsulotini, ayniqsa, keng iste'mol mollari yoki mashinasozlik, yoqilg'ienergetika mahsulotlarini joylashgan mamlakat bozoriga chiqarishi ko'p uchraydi.

Iqtisodiy qudratli davlatlar o'zlarini xom ashyo resurslari bilan ta'minlash hamda siyosiy-iqtisodiy tazyiq maqsadlarida xalqaro va xorijiy K.lardan keng foydalanadi. 20-asrning 90-yillarida Rossiya, [Qozog'iston](#), Ozarbayjonda neft konlarini rezvedka qilish va ishga tushirish bo'yicha [AQSH](#), [Buyuk Britaniya](#), Germaniya kompaniyalariga K. berilishi bunga misol bo'la oladi. Rivojlangan mamlakatlarda K.lar bilan bir qatorda chet el kapitali ishtirokidagi qo'shma korxonalar paydo bo'lmoqsa; 2) yangidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar sotuvini tashqil qilgani uchun banklar oladigan haq.

Konsessiyalar to'g'risidagi bitim yozma shakldagi shartnoma turi bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi investorga davlat nomidan maxsus ruxsatnoma beradi. Ushbu ruxsatnomaga ko'ra, konsessioner ma'lum turdagi xo'jalik faoliyatini amalga oshirish, konsessionerga mol-mulk obektlarini, yer (uchastkalari) maydonlari, yer osti boyliklaridan foydalanish huquqini ham beradi konsessiya to'g'risidagi imzolangan bitim asosida, o'z navbatida investor barcha ishlarni o'z hisobidan moliyalashtirish hamda barcha loyihani amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan barcha xavf-xatarlarni o'z zimmasiga oladi.

Konsessiya to'g'risidagi bitimda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi shart:

- konsessiya to'g'risidagi bitimning taraflari haqidagi;
- konsessiya to'g'risidagi bitimning predmeti haqidagi;

- taraflarning majburiyatlari va javobgarligi to'g'risidagi;
- konsedent va konsessioner o'rtasida xavf-xatarlarning taqsimlanishi haqidagi;
- konsessiya obektining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, shu jumladan konsessiya to'g'risidagi bitimga muvofiq boshqa o'tkazilgan yoki loyihalashtirilishi, qurilishi, barpo etilishi, moliyalashtirilishi, rekonstruksiya qilinishi, undan foydalanilishi va unga xizmat ko'rsatilishi lozim bo'lgan konsessiya obektlarining tavsifi, ulardan foydalanish maqsadlari va muddatlari to'g'risidagi;
- konsessiya loyihasi bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) muddatlari va tartibi haqidagi;
- taraflarning tegishli infratuzilmaga nisbatan va konsessiya loyihasi bo'yicha huquqlarini taqsimlash to'g'risidagi, shuningdek ularni boshqa shaxsga o'tkazish tartibi haqidagi;
- konsessiya loyihasini amalga oshirish uchun talab etiladigan yer uchastkalarini berish tartibi va tartib-taomili to'g'risidagi, yer uchastkalariga taalluqli boshqa shartlar haqidagi;
- xususiy sherik tomonidan beriladigan tovarlarga, bajariladigan ishlarga, ko'rsatiladigan xizmatlarga doir narxlarni, tariflarni belgilash va ularni o'zgartirish shartlari to'g'risidagi;
- taraflarning o'z majburiyatlari bajarilishini ta'minlash usullari, miqdorlari va muddatlari haqidagi;
- konsessiya to'g'risidagi bitimning muddati, bu muddatni belgilash tartibi haqidagi;
- haq to'lash, erkin foydalanilish uchun to'lov, foydalanganlik uchun to'lov, konsessionerning konsedentga to'lovining va (yoki) boshqa to'lovlarning shakllari, miqdorlari, muddatlari, shartlari, ularni to'lash tartibi, shu jumladan konsessiya loyihasi amalga oshirilishi munosabati bilan daromadlarning taqsimlanishi haqidagi;
- konsessiya to'g'risidagi bitimga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi haqidagi;
- konsessiya to'g'risidagi bitimni tugatish asoslari, tartibi va shartlari, muddatidan oldin tugatilganlik uchun to'lov miqdori va tartibi haqidagi;
- konsessiya loyihasining amalga oshirilishini monitoring va nazorat qilish tartibi to'g'risidagi;
- sug'urta qilish bo'yicha majburiyatlar haqidagi;
- loyiha hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha majburiyatlar to'g'risidagi;

- taraflarning konsessiya to'g'risidagi bitimga doir majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarligi to'g'risidagi;
- nizolarni hal etish tartibi haqidagi;
- O'zbekiston Respublikasida xodimlarni ishga olish va mehnatdan foydalanishga nisbatan qo'llaniladigan shartlar to'g'risidagi;
- ishontirishlar va kafolatlar haqidagi;
- konsessioner ulushlariga egalik qilishga nisbatan talablar va konsessionerning hamda uning affillangan shaxslarining mol-mulkiga nisbatan boshqa mulkiy huquqlar to'g'risidagi;
- maxfiylik haqidagi;
- atamalar va ularga doir tushuntirishlar to'g'risidagi.

Konsessiya to'g'risidagi bitimga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shartlar va talablar kiritilishi mumkin.

Konsessiya to'g'risidagi bitimda atrof-muhitga, ekologik xavfsizlikka tahdid vujudga kelgan yoki boshqa fors-major holatlarda investorning yer osti boyliklaridan foydalanish huquqlarini cheklovchi, vaqtincha to'xtatib turuvchi yoki butunlay bekor qilishni nazarda tutuvchi normalar ko'zda tutilgan bo'lishi shart.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "O koncessiyax (новая редакция)ID-5235(ЛОЙИХА)"// <https://regulation.gov.uz/uz/document/5235>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Konsessiya#cite_note-1;
3. <https://kun.uz/news/2019/07/27/konsessiyalar-togrisidagi-qonunning-yangi-tahriri-elon-qilindi>.